O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

# «SAN’AT YO‘NALISHLARIDAGI BO‘LAJAK KADRLARGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI






Samarqand – 2024y. 23-24 aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA
INSTITUTI

# “SAN’AT YO‘NALISHLARIDAGI BO‘LAJAK KADRLARGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR”

**Respublika ilmiy-amaliy anjuman**

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

**2024-yil 23-24aprel**

**SAMARQAND - 2024**

ritmik sur'atini doskaga grafik chiziqlarda ifodalash kabi ko'rgazmali vositalardan foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Musiqa o'qitish metodikasi /T.Ortiqov; T . : Muharrir nashriyoti, 2011. - 24-32-betlar

2. Askarova Saxibaxon Muxammadjonovna Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash. / o‘quv qo‘llanma./- Qo‘qon:”ART PRESS”, 2024, 174 bet.


## MAKTAB MUSIQA TA’LIMI JARAYONIDA MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTI


**B. Mustafoyev, T. Rajabov, Bux. DU Musiqa ijrochiligi va madaniyat professorlari**



***Annotatsiya:*** *maqolada mamlakatimizda musiqa madaniyati ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatida o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy tarbiyasi, milliy g‘oya targ‘iboti, umumta’lim maktablarida musiqa ta’lim-tarbiyasini yanada takomillashtirish masalalari xususida fikr yuritilgan.*



***Kalit so‘zlar:*** *musiqa ta’limi, milliy g‘oya, barkamol avlod, milliy o‘quv dasturi, musiqa merosi, zamonaviy musiqa darslari, kompetensiyalar, milliy g‘urur, malaka va ko‘nikma, o‘qituvchi kasbiy mahorati.*


Adabiyotlarda ta’rif etilishicha, milliy g‘oya ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlanib kelinayotgan, har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji hamda hayot talabiga aylanib ketgan, har qaysi millatning orzu-intilish va umid – maqsadlarini ifodalaydigan keng ma’noli tushunchadir. Darhaqiqat, barkamol avlodni tarbiyalash haqidagi maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ma’naviy asos - bu millatimiz urf-odatlari, hamisha ezgulikka intilishi, an’analarining o‘ziga xosligi, ilm va bilimga chanqoqlik, kasb-hunarni egallash kabi xislatlari asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so‘ng barcha sohalar qatori musiqa ta’lim – tarbiyasi sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. Yosh

avlod ongida milliy g‘oyani shakllantirish, ularni ma’naviy kamolotga yetkazishda musiqa san’ati va pedagogikasiga, musiqiy ta’lim – tarbiya masalalariga munosabat mohiyatan o‘zgardi. O‘zbek musiqa san’ati, madaniyatiga bo‘lgan e’tibor davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda musiqa san’atini rivojlantirish, yosh avlod badiiy iqtidori, musiqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qator dastur hamda rejalar amalga oshirildi va oshirilishi davom etmoqda.

Ta’kidlash o‘rinliki, hali 2000yillarning arafasida-yoq mamlakatimizda qabul qilingan ”Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, yuksak talant sohiblarini izlab topish va ularning san’atini ro‘yobga chiqarish to‘g‘risida’’gi (1999y) Farmon jamiyatni axloqiy - ma’naviy jihatdan poklash kelajakda komil insonni tarbiyalash ham kasbiy (professional), ham xavaskorlik repertuarida samarali ishlarni olib borishga keng yo‘l ochib berdi. Ommaviy musiqiy-badiiy tadbirlarning mazmun-mohiyati oshdi. Masalan, “O‘zbekiston - Vatanim manim”, “Asrlar sadosi”, “Barhayot navolar” kabi respublika miqyosida o‘tkazilgan qator ko‘rik - tanlovlar, “Nihol”, “Yangi avlod”, “Yosh ijrochilar respublika ko‘rik – tanlovlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bunday tadbirlar o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy g‘urur, ongiga milliy g‘oya hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishga xizmat qildi. Bu musiqiy tadbirlar ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, yoshlarni madaniyatli qilib tarbiyalash, mumtoz merosimizni asrab-avaylash va uni o‘rganish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish kabi ezgu maqsadlarga qaratildi.

Qabul qilingan Davlat hujjatlarida yosh avlodning har jihatdan yetuk va barkamol, yuksak ma’naviyatli, teran fikr soxiblari etib voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining muxim yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Jumladan, yosh avlodning musiqiy tarbiyasida muhim vosita sifatida milliy musiqa asarlaridan unumli foydalanish masalalariga e’tibor kuchaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ - 3391-sonli Qarori qabul qilinib, ayni vaqtda milliy o‘zligimizni anglash,

madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi ta’kidlab o‘tilgan edi.

Shu bois, milliy maqom san’ati namoyandalari, targ‘ibotchilari oldiga “Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish” vazifasi qo‘yildi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2022-yil 2-fevral № PQ 112-Qarorda esa 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muasasalarida o‘quvchi va talabalarnnig musiqiy bilim hamda ko‘nikmalarini oshirish ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga e’tibor qaratildi. Ayniqsa, o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatilishi va bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjati (shahodatnoma) ga tegishli qayd kiritilishi, musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkazilishi alohida e’tirof etildi.

Yana bir muhim hujjat - maktab “Milliy o‘quv dasturi” tasnifida - musiqa madaniyati o‘quv predmeti o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini rivojlantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek, klassik va zamonaviy san’at haqidagi boshlang‘ich bilimlarni o‘zlashtirish, musiqiy asarlarni tinglab tushunish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutildi.

Zamonaviy musiqa madaniyati fanining maqsadi - o‘quvchilarda san’at, badiiyestetik va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlar, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

Musiqa madaniyati fanining vazifalari esa musiqiy xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish;
o‘zbek va jahon kompozitorlari asarlarini tinglab, idrok etishga o‘rgatish;

- kuy ohangini, ifoda vositalarini xis qilish;
- musiqa savodiga oid nazariy bilim (kalit so‘zlar)larni bilish va amalda qo‘llash;
- kuy va qo‘shiqlarni tinglash orqali tuzilishi, janr (ommaviy va kasbiy jihatlarini bir-biridan ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- musiqa madaniyati fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- vokal-jamoa bo‘lib kuylash malakalarini rivojlantirish: xalq og‘zaki ijodining professional janri, milliy maqom ijrochilik san’atining mahalliy uslublari haqidagi boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- musiqa madaniyati fanining ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish;
- musiqa madaniyati fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta’lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko‘nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;
- fanning mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqishdan iborat” ligi bayon qilindi [3].

Maktab bitiruvchilariga musiqa madaniyati fani bo‘yicha “estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi”,“O‘zini-o‘zi rivojlantirish va asrash

kompetensiyasi”, “Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi” kabi talablar qo‘yildi.

Milliy o‘quv dasturi maktab musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchi-yoshlar ongi va qalbida milliy g‘oya mazmun-mohiyatini singdirishda, bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada yuqori talablar asosida tashkil etishda muhim omil bo‘lmoqda

Davlat ta’lim standartida ham musiqa madaniyati darslarida o‘zbek milliy musiqa san’ati, xususan, folklorga alohida ahamiyat berildi, mahalliy - uslubiy yo‘nalishlaridagi xalq qo‘shiqlarini ijro etish, xalqona yo‘lda yaratilgan allalar, laparlar va yallalarni kuylashga hamda tinglashga keng o‘rin berildi [4].

Bugungi kunda mumtoz merosimizni asrab-avaylash va uni o‘rganish, yosh avlodga bezavol yetkazish hamda yoshlarimizni ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash kabi ezgu maqsadlarga qaratilgan ishlar musiqiy ta’limning barcha bo‘g‘inlari, jumladan maktab musiqa madaniyati darslariga bo‘lgan e’tiborni ham kuchaytirishga olib keldi va ta’lim maskanlari zimmasiga katta mas’uliyat yukladi.

Jamiyat tomonidan maktab oldiga qo‘yilayotgan vazifalarni amalga oshirish fan va o‘qituvchi oldiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi. Albatta, musiqa hayot, uning voqea-hodisalari bilan chambarchas bog‘liqligini, ularni musiqiy-badiiy ifodalash xususiyatlari bilan yosh avlod musiqiy-badiiy qiziqishlarini rivojlantirish, mashg‘ulotlar tarbiyaviy ta’sirini oshirish, o‘quvchi-yoshlar orasida milliy g‘oya targ‘ibotini yanada kuchaytirish kabi muhim vazifalar musiqa madaniyati fani o‘qituvchisidan o‘z fanini mukammal bilishni va o‘quvchi shaxsi musiqiy didi, ehtiyoji hamda qiziqishlariga doimiy e’tibor bilan qarashni talab etadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, musiqa ta’limi sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar barkamol avlod ongida milliy g‘oyani shakllantirish, ma’naviy tarbiyasini rivojlantirish yo‘lida izchil olib borilayotgan ishlar o‘zining samarali natijasini bermoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbekiston milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ – 3391-sonli qarori //Xalq so‘zi. 2017. - 18-noyabr.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112- sonli Qarori.

3. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Musiqa madaniyati. – Toshkent. 2021. - B. 8-9.

4. “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-sonli qarori. (Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta’lim standarti). 2017 y. 6 aprel.

5. Мустафаев Б. БАРКАМОЛ АВЛОД МУСИКА МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА ИСЛОҲОТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.

6. Мустафаев Б. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУСИҚИЙ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА БАҲОЛАШГА ЎРГАТИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №.23.

7.Ражабов, Т. И. (2021). Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.

8. Ibodovich T. R. et al. BOSHLAG ‘ICH (1-4 SINFLARDA) MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINING PEDAGOGIK AHAMIYATI //Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 214-223.

9. Ibodovich T. R. Xalq qo ‘shiqlari vositasida o ‘quvchilarning ma ‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik asoslari //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 324-332

*Temuriylar davri renessansida musiqa madaniyatining rivojlanishi. E.Husanov……………………………………………………………………………..339*
*Musiqa va san'at maktablari o'quvchilarini axloqiy-estetik shakllantirish.TadjiyevA……………………………………………………………..344*
*Fortepiano cholg'u tarixi va ijrochilik uslublari Agzamova Dilshoda Baxrom qizi...............................................................................................................348*
*Musiqa darslarida interfaol usullardan foydalanish metodikasi Bannaqulov Mexroj Furqat o'g'li...................................................................................352*
*Musiqiy didaktik o'yinlar vositasida bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantirish.Baxtiyarova Duriya…………………………………………………357*
*Musiqa ta'limi tizimida sifatli ta'lim samaradorligini takomillashtirishda* innovatsion va integratsion yondashuvlar. *Qobilova E'zozxon…………………...362*
Musiqa va adabiyot uyg'unligi Sh.Turdiyev, D.Jamoldinova…………………………..367
Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining aosi. Sh.Baratov. D.Murodova. ……….371
*Musiqa madaniayti darslarida ko'rgazmali metodlardan foydalanishning ahamiyati S.M. Asqarova S. Kenjayeva, M.Kamolova, S.G`aniyeva, M. Shokirova. ...........................................................................................................377*
*Maktab musiqa ta'limi jarayonida milliy g'oya targ'iboti B. Mustafoyev, T. Rajabov............................................................................................................381*
*Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla, va ta'lim muassalarining o'rni Topildiyev Odiljon Raximjonovich...................................387*